

2020– yilning yanvar – mart oylarida Xorazm viloyatining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 1 941,7 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar– 1 872,4 mlrd. so‘mni (104,4 %), o‘rmon xo‘jaligi– 29,3 mlrd. so‘mni (101,7 %), baliq xo‘jaligi– 40,0 mlrd. so‘mni (114,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.



1 941,7

Xorazm viloyati bo‘yicha
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



1 872,4 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02




29,3 O‘rmon xo‘jaligi

03




40,0 Baliq xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2020– yilning yanvar – mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 96,4 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,5 % i– o‘rmon xo‘jaligi, 2,1 % i– baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2020– yilning yanvar – mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xazorasp (230 mlrd. so‘m) va Urganch (227 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xiva (9 mlrd. so‘m) va Urganch shaharlari (78 mlrd. so‘m) va Yangibozor tumani (111 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (104,5 %) yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiariq (108,2 %), Bog‘ot (105,5 %) va Yangibozor (105,3 %) tumanlarida kuzatildi. Xiva shahri (102,0 %), Urganch shahri (102,1 %), Xazorasp (103,4 %), Shovot (103,7 %), Xiva ҳамда Xonqa (103,9 %), tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 862,9 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 53,4 mlrd. so'mni (127,4 %), chorvachilik mahsulotlari– 1 809,5 mlrd. so'mni (103,9 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

2,9 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



97,1%
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 93,5 % i– dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,5 % i– fermer xo'jaliklariga, 2,0 % i– qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2020-yilning yanvar – mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Gurlan tumanida (10,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xonqa tumanida (6,5 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Xazorasp tumanida (2,4%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Gurlan tumanida (89,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Yangibozor va Gurlan tumanlarida (0,5 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 53,4 mlrd. soʻmni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 127,4 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 2,9 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 1 632 t. sabzavotlar (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 74,0 % ga koʻp) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 49,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.



Xorazm viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, t.




Chorvachilik



2020– yilning yanvar– mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1 809,5 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 97,1 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 36,4 ming t. go‘sh t (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 5,6 % ga ko‘p), 198,6 ming tonna sut (1,0 % ga ko‘p), 108,8 mln. dona tuxum (6,8 % ga ko‘p), 1,6 ming dona qorako‘l teri (2,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 1832 t. baliq (18,2 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 36,4 ming t. go'sht (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 5,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 97,1% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Xorazm viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, t.**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 198,6 ming t. sut (2019–yilning yanvar–martiga nisbatan 1,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha
sut yetishtirish
hajmi, t.




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 108,8 mln. dona tuxum (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 6,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1832,0 tonna (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 18,2 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 47,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Xorazm viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, t.**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni



2020– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,7 % i fermer xo'jaliklariga, 88,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 10,9 % i fermer xo'jaliklariga, 88,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 12,7 % i fermer xo'jaliklariga, 64,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 22,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 915,7 ming taga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 12,8 ming taga (1,4 %) ko‘paydi.


2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



Xorazm viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 346,7 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 2,9 ming taga (0,8 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 92,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



**Xorazm viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 431,8 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 15,5 ming taga (3,7 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 88,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



Xorazm viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 5,6 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 33 boshga (0,6 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 88,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



**Xorazm viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5680,8 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 300,2 ming taga (5,6%) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 64,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



Xorazm viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 71-777-77-77
• 71-777-77-77